

**BARKAMOL SHAXS TARBIYASIDA OTA-ONA VA MAKTAB
HAMKORLIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI****Olimqulova Vasila Mamatqulovna***Samarqand viloyati Toyloq tuman maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limiga qarashli 46- maktab psixologi*

Annotatsiya: Ushbu maqola umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarda ta'lim-tarbiyasi va bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish uchun ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etishning eng samarali usullari va metodlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Zamonaviy dunyo, ta'lim-tarbiya, yosh xususiyatlari, ijtimoiy ro'llar, shaxsiyat, ma'naviy-axloqiy, tashkilot, qadriyatlar.

Shiddat bilan rivojlanayotgan shunday bir davrda har bir ota-ona o'z farzandini kelajagi va uning ta'lim tarbiyasi hamda kelajagi haqida qayg'urishi va harakat qilishi kerakligini taqazo etadi, zero barkamol avlodni tarbiyalash bugungi zamon talabidir. Shu bois ham mamlakatimizda barcha xayrli ishlar avvalo oilalarni mustahkamlash va yosh avlodning yorug kelajagini ta'minlash maqsadida amalga oshirilmoqda. Maktab o'quvchilarining tarbiyasiga eng birinchi navbatda oila ota-ona ma'suldir. Chunki, farzand tarbiyasi ko'p omillarga, avvalo, axloqiy-ma'naviy muhitga ham bogliq holda tarkib topadi. O'quvchilarning ta'lim-tarbiya ularning xulq atvori va kamol topishi bu bevosita oila bilan ta'lim muassasalari va oila bilan birgalikdagi hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda oilalarda ota-onalarning farzand tarbiyasiga bo'lgan e'tibori kundan-kunga kuchaymoqda. Bunga sabab muhtaram yurtboshimiz tomonidan xalq manfaatlarini uchun barcha sohalarga bo'lgan e'tibor, olib borilayotgan islohotlar, yaratilayotgan shart-sharoitlar, berilayotgan imkoniyatlardir. Bunday imkoniyatlardan to'laqonli foydalanib kelayotgan ota-onalar farzandlari tarbiyasiga o'ta ma'suliyat bilan qaramoqdalar. Chunki, farzand insonga berilgan eng ulug' ne'mat bo'lishi bilan birga, u ota-onaga topshirilgan ma'suliyat hamda omonatdir. Bolalar - kelajagimiz ekan, ularni ham jismonan, ham ruhan, ham ma'nan soglom bo'lib kamolga etkazish barchamizning asosiy vazifamiz bo'lib qolishi kerak. Oiladagi talim-tarbiya jarayoni maktabgacha talim tashkiloti bilan hamkorlikda yolg'a qoyilsa bolaning har tamonlama rivojlanishiga turtki boladi. Bolaning maktabgacha talim tashkilotiga borgan ilk kunidan boshlab, oila va MTT hamkorligini tashkil etish kerak. Birinchi navbatda tashkilotga yangi qabul qilingan bolani ota-onasi va oilasi bilan yaqindan tanishish ular bilan uzviy muloqotni yolg'a qoyish kerak. Ikkinchidan doimiy ota-onalar bilan hamkorlikni yolg'a qoyish, bolaning uydagi faoliyati, qiziqishlari haqida sorash uni talim-tarbiya jarayonida inobatga olishi vaqti-vaqti bilan bolani

ragbatlantirib turish, uning kichkina mehnatini ham etibordan chetda qoldirmaslik kerak. Zero, tarbiya - shaxsning ma'naviy va aqliy qiyofasini, hattoki butun taqdirini belgilovchi omildir. Ulug mutafakkir Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" kitobida "Alloh taolo insonlarni asl xilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi bilan yomonni, foyda bilan zararni, oq bilan qorani ajratadigan qilib yaratgan. Ona yurtiga shu sababli o'quvchilarning hayotida muhim o'ringa ega bo'lgan dars mashg'ulotlaridan bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish, undan oqilona foydalanishda ularga yordam berish zazor. Barcha shakllardagi darsda va maktabdan tashqari ishlarining chuqur ichki mohiyati o'quvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatga faol jalb qilish ularning tashabbusi va mustaqilligini rag'batlantirish, individual qiziqishlarini va qobiliyatlarini rivojlantirishdan ibortdir. O'quvchilarning o'qishdan tashqari ishlarga pedagogik rahbarlikning xususiyati ularga faqat dars mashg'ulotlarida emas, balki ijtimoiy tashkilotlar orqali, sinfdan va maktabdan tashqari har xil tadbirlar orqali amalga oshadi. Bugungi kunda katta extiyojga aylanib borayotgan narsa bu internet tarmoqlaridan samarali va unumli foydalanishni yoshlar ongiga singdirish, va bunda ota-ona hamda maktab o'qituvchilari hamkorlikda bolalarni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilishga faqatgina zarurat bo'lsagina telefondan foydalanishlari mumkinligini ta'kidlab bolalar ongiga singdirib borish kerak. Bugungi kunga kelib o'sib kelayotgan yosh avlodni eng yaqin do'sti bu.. ming afsuslar bo'lsinki telefon, gadjet, planshet va televizorlarga aylanib qolmoqda. To'g'ri biz bolalarga bu narsalardan foydalanishni ta'qiqlab qo'yolmaymiz, lekin undan to'g'ri foydalanishni o'rgatmog'imiz lozim. Yoshlar hozirda texnologik bilimlarini kattalardan ko'ra tez hamda samarali egallamoqda va aytish mumkinki, kompyuter texnologiyasi savodxonligi bo'yicha kattalardan ustunlik ham qilishadi. Ular ta'lim jarayoni va mashg'ulotlar vaqtida o'qtuvchi nazoratida internetdan asosan ilm-fan, madaniyat va sportga oid malumotlarni oladi, o'rganadi. Bular xursand bo'ladigan ijobiy holatlar. Darslardan chiqib dars vaqtida ololmagan biron bir qiziq malumot, videorolik va shu kabi axborotni hozlagan internet kafedan hech kimning nazoratisiz ham topishi uni yuklab olishi mumkin. Kompyuter o'yinlarining bazilari o'smirlar intelektining rivojlanishiga, qiyin sharoitlarda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalrining shakllanishiga, mantiqiy fikirlashning oshishiga, ijodiy, ruhiy rivojlanishiga yordam beradi. Lekin hozirgi kunda jamiyatni kompyuterlashtirishning ijobiy tomonlari bilan birga bolalar va o'smirlarni kompyuter, internet va asosiysi kompyuter o'yinlariga haddan ortiq bog'lanib qolish holatlari hamkuzatilmoqda. Bolalar va o'smirlarda kompyuter o'yinlariga psixologik tobeylik ko'rinishiga o'tib ketmoqda. Kopyuter o'yinlariga tobe bo'lib qolgan o'smir real hayotdan, zerikishdan, yolg'izlikdan, hayot qiyinchiliklaridan qochish maqsadida kompyuter o'yinlariga murojaat qilishni boshlaydi. "Psixologlarning ma'lumotlariga ko'ra, kompyuter o'yinlarini o'ynaydigan 10-15% insonlar ularga tobe bo'lib qolishar ekan. Tobelik asosida esa rohatlanishga nisbatan

ehtiyoj yotadi. Mazkur tobelik har qanday yoshda paydo bo'lishi mumkin, biroq u o'smirlarda o'ta ta'sirli bo'ladi. Mutaxassislar tobelikning bunday turini o'ziga xos "Emotsional narkomaniya"ga taaluqli deb hisoblashadi. Kompyuterga tobelik og'ishgan xulq-atvor turlaridan biri hisoblanadi va u o'zining emotsional ruhiy kayfiyatini o'zgartirish usuli yordamida kundalik tashvishlardan qochishga intilish holati bilan ifodalanadi. Bunday paytlarda bolaning psixikasi tormozlanadi, individual shaxsiy rivojlanishdan to'xtaydi. Internet tarmoqlari va turli xil virtual o'yinlarga tobelikni ortib ketishining asosiy sabablaridan biri bolalarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri taqsimlanmasligi va ota-ona nazoratidan chetda qolib ketishi. Barcha tobiylik vositalari hattoki kompyuter o'yinlari ham ijobiy hissiyotlarni paydo qiladi (xursandchilik, baxtiyorlik, rohat, ruhiy va jismoniy yengillikni sezish) va salbiy hissiyotlarini (havotir, hafalik, aybdorlik hissi, o'zini yolg'iz his etish) bartaraf etadi. Bolalar kompyuterni bir necha marta o'ynagandan so'ng kompyuter qahromoni va undagi virtual olam, unung real hayotidagi qondirilmagan ehtiyojini qondirishga imkon berayotkanini tushunadilar. Bu kompyuter qahromonini hurmat qilishadi, uning fikrlariga qo'shilishadi, u kuchli, kuplab dushmanlari bir zumda yo'q qilib g'alaba qozona oladi. Bolalar uchun bu rolga kirish va o'zini "u" deb hisoblash yoqimlidir. Chunki ularning ko'pchiligi real hayotda o'zlarida bunday his-tuyg'uni his qilishlari qiyin.

Xulosa qilib aytganda bolalar hayotimizning mazmuni, eng muhim bo'lagi ekanini aytishdan charchamasligimiz kerak. Albatta kompyuter va internet orqali begona insonlar masofadan farzandimiz psixologiyasini bilib olayotganini bo'lsayu, nahotki biz ularni har kuni har soniya ko'rib, kuzatib yurgan, qo'lidan yetaklab katta qilayotkan ota-onasi bo'la turib ularning pok va beg'ubor qalblarini, orzu istaklarini va extiyojlarini anglay olmasak... degan savolni har birimiz o'zimizga berishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A. Abdusamedov. Mustahkam oila ma'naviyati. Toshkent – 2011.
2. D.I.Ahmedova, G.U.Solihova. Sog'lom avlod asoslari. Toshkent-2007.
3. M.G.Davletshin va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. Toshkent. TDPU .2004y.
4. E.G'oziev. Umumiy psixologiya. Toshkent "O'qituvchi" 2010 y.
5. M.G.Davletshin. Zamonaviy maktab o'qituvchisi psixologiyasi. Toshkent. 1998